MAQSUD SHAYXZODANING TOSHKENTDAGI HAYOTI

Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li
Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li
Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotation: This article talks about the history of Maqsud Sheikhzadeh’s arrival in Tashkent, his work in Tashkent, the difficult situation in Central Asia during the colonial period, and Maqsud Sheikhzadeh, who was a lover of the two peoples who

Keywords: colonialism, philosophy, literature, literary studies, national renaissance, theater, drama, performance.

Аннотация: В данной статье рассказывается об истории прибытия Максуда Шейхзаде в Ташкент, его работе в Ташкенте, непростой ситуации в Средней Азии в колониальный период, а также о Максуде Шейхзаде, который был любителем двух народов, творивших вопреки такому положению.

Ключевая слова: колониализм, философия, литература, литературоведение, национальное возрождение, театр, драма, спектакль.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning Toshkentga kelish tarixi, Toshkentdagi ijodi, mustamlakachilik paytlaridagi O‘rta Osiyodagi og‘ir ahvol haqida va shunday vaziyatga qaramay ijod qilgan ikki xalq dilbandi bo‘lmish Maqsud Shayxzoda to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mustamlakachilik, sh’riyat, adabiyot, adabiyotshunoslik, milliy uyg‘onish, teatr, dramma, spektakl.

XIX asrning 60-yillarida O‘rta Osiyo mustamlakachilik davrida edi. Shuning uchun mintaqada yashagan xalqlarning erkinliklariga tusqinliklar kup edi. Shunga qaramay, O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri – Toshkent ya’ni bizning yurtimizda XX asr boshlarida tezlik bilan ravnaq topdi. Bir tomondan, shu davrda Eron, Turkiya va Rossiyada sodir bo‘lgan ijtimoiy voqealar, ikkinchi tomondan, Bog‘chasaroy, Qozon, Ufa, Istanbul, Kohira, Kalkutta singari shaharlarda nashr etila boshlagan taraqqiyparvar gazeta va jurnallarning tarqalishi Turkistonda, ayniqsa, Toshkentda milliy uyg‘onish harakatining vujudga kelishiga zamin hozirladi. Turkiston xalqlari hayotida jilva qila boshlagan o‘zgarishlar bu yerga ko‘plab maorif va madaniyat ahlining ko‘chib kelishiga sabab bo‘ldi. Mahalliy aholidan yetishib chiqqan savdogar va tadbirkorlar Turkiston bozorlarini egallagan kapitalistlar bilan faqat raqobatlashmasdan, o‘z mollarini Rossiyaning Nijniy Novgorod va boshqa shaharlaridagi yarmarkalarga ham olib bora boshladilar. Ayrim turkistonlik savdogar va tadbirkorlar esa hatto Parij, Berlin, Xelsinki, Varshava singari shaharlarda o‘z do‘konlarini ochdilar. Shunday o‘zgarishlar tufayli Turkiston va uning poytaxti

Toshkentga Kavkazdan ham ko‘plab turli soha vakillari kela boshladi. Agar ularning bir qismi 1905 yil rus inqilobidankeyin “ijtimoiy xavfli unsurlar” sifatida Turkistonga surgun qilingan bo‘lsa, boshqa qismi o‘z xalqining maorif va madaniyat sohasida erishgan yutuqlarini targ‘ib qilish, ayni paytda o‘zbek maorifi va madaniyati rivojiga hissa qo‘shish istagida keldi. Chunonchi, 1911 yilda mashhur aktyor Ahmadbek Qamarlinskiy rahbarligidagi ozarbayjon teatr truppasi Turkistonga kelib, Samarqandda M.Axundovning “Hodi qora”, N.Vazirovning “Yomg‘irdan qochib selga”, A.Haqberdiyevning “Og‘a Muhammadshoh kajar» singari spektakllarini namoyish qildi. 1915 yilda Ozarbayjon muzika teatri Turkistonga kelib, A.Qamarlinskiy tomonidan sahnalashtirilgan, Sidqiy Ruhullo, Aliakpar Husainzoda, Jalil Bag‘dodboyev, Husayn og‘a Hojiboboyev singari taniqli artistlar ishtirok etgan spektakllar Toshkent va Qo‘qon shaharlarida namoyish etildi. O‘zbek tomoshabinlari birinchi marta Molyerning “Zo‘raki tabib”, Uzeir Hojibekovning “Mashadi Ibod”, A.Haqberdiyevning “Pari jodu” singari spektakllarini ko‘rib, muzikali teatr san’atidan bahramand bo‘ldilar. Ozarbayjon teatri gastrollarining katta muvaffaqiyat bilan o‘tishi Sidqiy Ruhullo boshchiligidagi teatr gruppasining 1916 yilda “Layli va Majnun”, “Arshin mol olon”, “Asli va Karam”, “U o‘lmasin, bu o‘lsin” singari muzikali spektakllarni olib kelishi va namoyish etishiga imkon tug‘dirdi. 1916 yil 12 noyabrda mazkur truppa tomonidan “Layli va Majnun” muzikali dramasining namoyish etilishi Toshkent shahrining madaniy hayotida unutilmas voqea bo‘ldi.Toshkentlik taraqqiyparvarlar bu spektaklni katta quvonch bilan qarshi olibgina qolmay, o‘sha yilning 30 dekabrida Sidqiy Ruhullo rahbarligida sahnalashtirilgan “Layli va Majnun” spektaklida bevosita ishtirok ham etdilar. Shu tarzda yosh o‘zbek teatri namoyandalarining ozarbayjon teatri arboblari bilan ijodiy do‘stligi boshlandi. Agar teatr ikki qardosh xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarning ravnaq topishida muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, bu aloqalarning ildizi ikki xalqning uzoq asrlarga boribtaqaluvchi adabiyotida edi. Uzoqqa bormaylik, Turkistonda fuzuliyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik singari o‘ziga xos adabiy maktablardan biriga aylanishi yoki 1906 yildan boshlab ozarbayjon ma’rifatparvarlari Jalil Mamatqulizoda va Sobir tomonidan “Mulla Nasriddin” jurnalining nashr etilishi o‘zbek xalqi ma’rifati va madaniyatiga ta’sir etmay qolmadi. Xususan, “Mulla Nasriddin” ta’sirida o‘tgan asrning 20-yillarida “Mushtum” hajviy jurnali, shuningdek, gazeta va jurnallarning hajviy bo‘limlari maydonga keldi va talaygina hajvnavis shoir va yozuvchilar yetishib chiqdilar. Xuddi shu yillarda o‘zbek yoshlari Berlin, Moskva, Peterburg, Qozon, Orenburg shaharlari singari, Bokuga ham o‘qishga yuborildi. Sayfi qori Alimov singari artistlar, Hodi Zarif singari olimlar, G‘ayratiy singari shoirlar, Obid Karimoy singari matematiklar Ozarbayjonda tahsil oldilar. Ozarbayjon va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi bu aloqa ayrim shaxslar doirasidagi hodisa emas, balki ikki xalq o‘rtasida o‘rnatilgan barqaror va kundan-kunga mustahkamlanib borayotgan voqea edi. Shuning uchun ham uch

yillik surgun muddatini o‘tkazish tashvishi bilan yashayotgan Maqsudning Toshkentni tanlashi tasodifiy emas edi. Endigina 20 yoshga qadam qo‘ygan yigitning Toshkentni najot sohili sifatida tanlashi otasi Ma’sumbekning istak-xohishi bilan ro‘y berdi. O‘sha kezlarda xizmat safari bilan Moskvada bo‘lgan Ma’sumbek xotini Fotimaxonimga Toshkentda yaxshi tanishlari borligi va shu tanishlari arosatda qolgan farzandlariga mehr-oqibat ko‘rsatishi mumkinligini xabar qilgan edi. Ma’sumbekning bu tanishi yoki tanishlari kim bo‘ldi ekan?.. Maqsud kichik bir yukxaltasi bilan Toshkentga yetib kelganida, kim unga o‘z bag‘rini ochgan va, ota-onasi orzu qilganidek, unga mehr-oqibat ko‘rsatgan. Afsuski, Shayxzoda hayotining shu mushkul davrini eslab, uni ochiq chehra bilan kutib olgan kishi yoki kishilar nomini biror yerda tilga olmagan.

Bunday ma’lumotni biz tergov hujjatlarida ham uchratmaymiz. Shubhasiz, o‘sha yillarda turli bahonai sabab bilan Toshkentga kelib, o‘zbek diyorida istiqomat qilayotgan ozarbayjonlar oz bo‘lmagan. Shunday kishilardan biri nomi yuqorida tilga olib o‘tilgan Posha G‘aniyev edi. U garchand 1894 yilda Ozarbayjonning Shemaxa shahrida dunyoga kelgan bo‘lsa-da, bolaligida, bizga noma’lum sabablarga ko‘ra, ota-onasi bilan Oqtoshga ko‘chib borgan. 1916 yilning oktyabr oyida, mashhur xalq qo‘zg‘olonining aks-sadolari so‘nmagan bir vaqtda Toshkentga ko‘chib kelib, o‘sha paytda Sirdaryo guberniyasiga qarashli Mirzacho‘lda istiqomat qila boshlagan. U ham biror tazyiq orqasida bunday qarorga kelgan bo‘lsa kerakki, ko‘p o‘tmay, qora qilib kelgani akalari bag‘rida, Mirzacho‘lda ro‘zg‘or tebratmay, Samarqandga ko‘chib borgan. Posha G‘aniyev o‘qimishli, bilimdon kishilardan bo‘lganligi tufayli 1930 yilga qadar Samarqandda yashab, davlat idoralaridan birida xizmat qiladi. Ammo o‘sha yillarda o‘zbek yurtining poytaxti bo‘lib turgan Samarqand o‘z mavqeini yana Toshkentga qaytarib bergan va barcha davlat idoralari yana Toshkentga ko‘chirib keltirilgan. Posha G‘aniyev ham xizmat qilayotgani idora bilan birga Toshkentga qaytib kelib, 1930 yildan boshlab shu yerda tuz-nasibasini totib yashagan. Ma’sumbek O‘zbekiston Respublikasi poytaxtining 1925 yilda Toshkentdan Samarqand shahriga ko‘chirilgani, binobarin, Posha G‘aniyevning ham ishxonasi bilan birga yangi poytaxtga ko‘chib ketganidan bexabar, o‘g‘liga xotini orqali uning Toshkentdagi manzilgohini bergan bo‘lishi mumkin. Har holda Shayxzoda o‘zbek yurtiga kelgach, tergov hujjatlarida qayd etilganidek, otasining boshqa bir tanishi Sobir Sharipovning Turk Yangi shahar ko‘chasidagi uyini izlab topib, shu yerda yashay boshlagan. Sobir Sharipovning bu otameros uyida o‘sha vaqtda, uning o‘zidan tashqari, yana ikki akasi ham bola-chaqalari bilan yashardi. Oradan ikki-uch oy o‘tganidan keyin bo‘ydoq holda yashayotgan Sobir Sharipov oila qurib, xotini bilan boshqa joyga ko‘chib o‘tgan va uning Shayxzoda bilan birga istiqomat qilayotgan xonasi akalarining ixtiyorida qolgan. Uysiz-joysiz qolgan Shayxzoda Qashg‘ar mahalladagi musofirlar uchun mehmonxona vazifasini o‘tovchi choyxonadan panoh topishga majbur bo‘lgan. Odatda biror mashhur yozuvchi yoki san’atkorning hayot yo‘li to‘g‘risida so‘z borganda, uning

qayerda va qanday yashagani masalasi chetlab o‘tiladi. Ammo, boshqa mashhur yozuvchi va san’atkorlardan farqli o‘laroq. Shayxzoda Toshkentga ko‘chib kelganidan keyin bir necha yil mobaynida sarsonsargardonlikda yashaganki, bu hol uning ijodiga va shu kezlardagi hayot tarziga ta’sir o‘tkazmasligi mahol edi. Shuning uchun, siz hurmatli kitobxondan uzr so‘ragan holda Shayxzodaning Toshkentdagi “odisseya”sini bayon etishda davom etsam. Shayxzoda Qashg‘ar mahalla choyxonasida yotib yurgan kunlarning birida ittifoqo tatar millatiga mansub bir kishi bilan tanishib qoladi. U musofir yigitning shirinzabon suhbatdosh va tanti inson ekanligiga mahliyo bo‘lib, uni biror qo‘nimli joy topguniga qadar o‘z uyida yashashga taklif etadi. O‘sha kezlarda Shayxzoda uchun turar-joy bilan birga biror ishga joylashib, rizq-nasibasini topish, ochiqroq aytsak, iqtisodiy muammoni hal qilish masalasi g‘oyat muhim edi. Uning baxtiga, o‘sha yillarda Toshkent vokzali yaqinida ozarbayjonlilar uchun maktab ochilgan bo‘lib, u bir muncha muddat Narimonov nomi bilan atalgan shu maktabda muallimlik qiladi. Maqsud mazkur maktabda Dadakishi ismli muallim bilan tanishadi. Dadakishi mazkur maktab yaqinida umrguzaronlik qilgani uchun, Shayxzoda, agar u rozi bo‘lsa, uning uyida ijarada yashash istagi borligini aytadi. Xullas, ozarbayjon millatiga mansub Dadakishining roziligi bilan Maqsud 1929 yil bahoriga qadar uning uyida hamxona bo‘lib yashaydi. Xullas Maqsud Shayxzoda ijodidavomida ko‘plab ijodiy to‘siqlarga uchradi, shunga qaramay ijodini tqxtatmadi. Toshkentga kelgandan so‘ng xam ko‘plab ijodiy namunalar yaratdi. Biz xam ajdodlarimiz kabi yuksalishimiz kerak. Zero tinch va imkoniyatlari yetarli davlatda yashaymiz.